

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**J.Sultonov**

Chingizxon va Jin davlati o'tasidagi diplomatik va harbiy munosabatlarning tarixiy tahlili ..... 224

**M.A.Boltaboyev**

Sovet hokimiyatining O'zbekistondagi musulmon bo'limgan aholiga nisbatan olib borgan zo'ravonlik siyosati ..... 234

**Sh.B.Jumayeva**

Globallashuv davrida boqiy marosim: Toshkent vohasi muqaddas qadamjo va mozorlarida ziyorat ..... 239

**M.R.Sodiqova**

Ipakchilikning O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'mni (1991-2021-yillar) ..... 244

**A.X.Nigmatov**

Shanxay hamkorlik tashkiloti vujudga kelishining tarixiy asoslari ..... 251

**M.B.Nazirov**

Rossiya imperiyasi ko'chirish siyosatining Farg'ona viloyati tub aholisining iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotiga ta'siri ..... 257

**B.N.Rizayev, Б.Н.Ризаев, B.N.Rizaev**

A.N.Kasigin islohotlarining O'zbekiston qishloq xo'jaligida joriy etilishi ..... 260

**M.A.Maxmudov**

XX asrning 20-30-yillarida O'rta Osiyodagi madaniy obidalarni saqlab qolishda sredazkomstarisning faoliyati ..... 266

**I.B.Boxodirov**

Birinchi jahon urushi yillarda turkiston harbiy okrugida mahalliy qurolli kuchlar va harbiy asirlar masalasi ..... 270

**J.Sultonov**

Xorazm imperiyasining vujudga kelishi va Muhammad Xorazmshohning Mo'g'ullar bosqiniga qadar olib borgan harbiy-diplomatik strategiyasi ..... 273

**O.B.Nizomiddinov**

O'zbekiston SSRda lotin yozuvining joriy etilishi: muammo va ziddiyatlar (Farg'ona viloyati misolida) ..... 279

**O.H.Jaynarov**

O'zbekiston SSR advokaturasi tizimi: islohot va natijalar (XX asr 20-yillari) ..... 284

**O.M.Normatov**

Farg'ona vodiysi qishloq xo'jaligi va savdo-sotiq munosabatlari tarixining ayrim jixatlari xususida ..... 289

**Y.A.Shukurillayev**

Buxoro amirligida qo'shin qarorgohlarining o'rnatilish taomillari ..... 293

## ILMIY AXBOROT

**Z.X.Oxunova**

Yangi O'zbekistonda jinoyat va jazo sohasidagi liberallashuvni tadqiq etishdagি falsafiy yondashuvlar ..... 297

**X.J.Isomiddinov**

Jamiyatda millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlashda yoshlar tarixiy-falsafiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy jihatlari ..... 300

**M.B.Nazirov**

Ko'chiruvchilik siyosatining Farg'ona viloyati tub xalqlarining siyosiy, fuqarolik ahvoliga ta'siri .... 304



UO'K: 947 (575.1)

**SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKİSTONDAGI MUSULMON BO'LМАGAN AHOLİGA  
NISBATAN OLIB BORGAN ZO'RAVONLIK SIYOSATI**

**ПОЛИТИКА НАСИЛИЯ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ В ОТНОШЕНИИ  
НЕМУСУЛЬМАНСКОГО НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА**

**THE SOVIET AUTHORITY'S POLICY OF VIOLENCE TOWARDS THE NON-MUSLIM  
POPULATION OF UZBEKISTAN**

**Boltaboyev Muhammadjon Axmadjon o'g'li**   
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

***Annotatsiya***

*Ushbu maqolada Sovet hokimiysi o'rnatilgan yillarda musulmon bo'l'magan aholi va islomdan o'zga diniy tashkilotlarga nisbatan olib borilgan siyosat va uning oqibatlari yoritib berilgan.*

***Annotatsiya***

*В статье описывается политика, проводившаяся в годы советской власти в отношении немусульман и немусульманских религиозных организаций, и ее последствия.*

***Abstract***

*This article highlights the policies and consequences of non-Muslim population and Islam in relation to other religious organizations in the ears of Soviet rule.*

**Kalit so'zlar:** Cherkov, sinagoga, pravoslav ruhoniylari, ateistik siyosat, Xudosizlar uyushmasi, Bezbojnik gazetasi, madaniy-oqartuv muassasalar, xristian va yahudiy dinlari, sovet xalqi.

**Ключевые слова:** церковь, синагога, православные священники, атеистическая политика, объединение Безбожник, газета Безбожник, культурно-просветительные учреждения, христианская и еврейская религии, советские люди.

**Key words:** Church, synagogue, Orthodox priests, atheistic politics, Ungodly association, Bezbojnik newspaper, cultural and educational institutions, Christian and Jewish religions, Soviet people.

**KIRISH**

Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, O'zbekiston azaldan turli urf-odat, madaniyat, til, turmush tarziga ega bo'lgan, xilma-xil dinlarga e'tiqod qiluvchi bir-biriga o'xshash bo'l'magan bir necha xalqlar yashagan o'lkadir. O'zbekistonning jo'g'rofisi nuqtayi nazardan muhim savdo yo'llari chorrahasida joylashgani, ko'plab davlatlar bilan iqtisodiy, madaniy aloqalar qilgani erli xalqning diniy va madaniy hayotiga katta ta'sir ko'satgan. Aynan shu omillar xalqimizning nafaqat ma'naviy-ma'rifiy, balki diniy bag'rikengligining ma'haviy asosini tashkil qiladi.

Sovet hukumati turli millat va din vakillariga nisbatan repressiv siyosat olib borgan bo'lib, bu jarayonda musulmon bo'l'magan aholi ham katta tazyiqlarga uchragan. Sovet mafkurasi diniy e'tiqodni yo'q qilishga intilgan va bu maqsadda xristian, yahudiy, buddist hamda boshqa konfessiyalar vakillari ta'qib qilingan. Pravoslav cherkovlari yopilgan, ruhoniylar qamoqqa olingan yoki o'dirilgan, yahudiy ziyyolilar va shifokorlar "davlat dushmani" sifatida nishonga olingan. Shuningdek, urush yillarida nemis, polyak, koreys va boshqa millatlar vakillari "ishonchsz xalq" sifatida surgun qilingan. Buddist monastirlari vayron qilingan, rohiblar esa qatag'on qilingan. Ushbu siyosat natijasida millionlab insonlar hayotidan ayrilgan, surgun qilingan yoki mehnat lagerlariga jo'natilgan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLGIYA**

Sovet hokimiyatining musulmon bo'l'magan aholi, jumladan, pravoslav ruslar, yahudiylar, nemislar va boshqa millatlarga nisbatan olib borgan zo'ravonlik siyosati murakkab va ko'p qirrali masala bo'lib, u turli davrlarda turlichay namoyon bo'lgan. Sovet hokimiyati ateistik mafkurani targ'ib qilgan va barcha diniy guruhlarga qarshi keskin repressiyalar o'tkazgan. Sovet hokimiyatining musulmon bo'l'magan aholiga nisbatan olib borgan repressiv siyosati aniq strategiyalar va

## TARIX

metodlarga asoslangan bo'lib, u turli davrlarda turli shakllarda namoyon bo'lgan. Sovet hokimiyatining musulmon bo'limgan aholiga nisbatan zo'ravonlik siyosatini o'rganish uchun turli ilmiy metodlar ishlataladi. Bu metodlar tarixiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar, shaxsiy guvohliklar va sotsiologik tadqiqotlar orqali bu siyosatning mohiyatini tushunishga yordam beradi.

## NATIJA VA MUHOKAMA

"Asrlar davomida yirik shaharlarimizda masjid, cherkov va sinagogalarning mavjud bo'lishi, turli millat va dinga mansub qavmlarning o'z diniy amallarini erkin ado etib kelayotgani buning tasdig'idir. Tariximizning eng murakkab, og'ir davrlarida ham ular o'tasida diniy asosda mojarolar bo'limgani xalqimizning diniy bag'rikenglik borasida katta tajriba to'plaganidan dalolat beradi" [8;61].

Bu borada arxiyepiskop Vladimirning fikrlari o'rinnidir: "XIX asrda Rossiyaning markaziy mintaqalaridan majburlab ko'chirilgan dehqonlar nochor ahvolga tushib qolganda, mahalliy aholi ularga har tomonlama yordam ko'rsatgan. O'sha davr voqealarini ko'rgan iyeromonax Xariton "mahalliy aholi nochor ko'chmanchilarga rahmdillik bilan munosabatda bo'ldilar, busiz ularning ko'pchiligi ochlik va muhtojlikdan o'lib ketgan bo'lar edilar", – deb guvohlik bergen" [2;43].

Turkiston erlariga kirib kelgan Rus pravoslav ruhoniylari asosiylar e'tiborni missionerlik faoliyatiga emas, balki o'z jamoalarining diniy ehtiyojlarini qondirishga qaratganlar. Pravoslavlар cherkov qurbanlarida mahalliy musulmon aholi ham yordam ko'rsatgani ma'lum. Masalan, Chirchiq shahridagi "Muqaddas Georgiy" ibodatxonasi qurilishiga mahalliy imom va savdogarlar moddiy ehson qilganlar [5;69]. Ko'chirilib keltirilgan islomdan o'zga dinga e'tiqod qiluvchi aholi Farg'onada vodiysida buyyod etgan cherkov, ibodatxona, sinagoglarni qurishda mahalliy aholi ganchkorlik usulini qo'llaganliklarini ham ko'rish mumkin. Qo'qondagi Qozon soborini qurishda ganchkor usta Husniddin naqqosh faol ishtirok etganligi uchun rus pravoslav cherkovi episkopi tomonidan avliyo Stanislav medali bilan mukofotlangan edi. Bu holat ikki din vakillari orasidagi o'zaro hurmat o'sha davrlardan shakllanganiga dalil bo'la oladi.

Farg'ona vodiysida yahudiylar, lo'lilar, mazzanglar o'zlarining diniy e'tiqodlariga o'rta asrlardan buyon ibodat qilib kelishgan bo'lsa, islomdan o'zga dinga e'tiqod qiluvchilarni aksariyat qismi Rossiyanı Markaziy Osiyo xonliklarini bosib olishi va ko'chirish siyosatini amalga oshirilishi jarayonida kirib kelishdi va yangi turar joylar tashkil etishib, u erlarda cherkov, kostel, ibodatxonalar ham qura boshlashgan. Shu tariqa xristian dini qavmlari soni yillar o'tgani sari ortib boradi, ularni ko'pchiligi pravoslav oqimiga e'tiqod qiluvchi rus, ukrain, belorus, nemis, polyak millatiga mansub ko'chkinchilarni tashkil etgan.

Sovet hokimiyatining Turkiston o'lkasida xususan, Farg'ona vodiysida islom va o'zga dinga e'tiqod qiluvchi aholi orasida ularga nisbatan diniy siyosatida beqarorlik va ishonchszilik tamoyillari namoyon bo'lib borgan. Bu esa o'lkada diniy omilning kuchli ta'siri tufayli oshkora ateistik siyosatni olib borishni cheklagan. Biroq bu jarayon uzoqqa cho'zilmagan. Turkistonda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilgandan so'ng barcha dinga dinga e'tiqod qiluvchilarga nisbatan dahrilikdan iborat siyosati kuchaytirildi. Sobiq Turkiston ASSR, Buxoro amirligi va Xiva xonligi hududlaridan tarkib topgan yangi subyekt – O'zbekiston SSR tashkil topganidan keyin "dinga qarshi tashviqot va turmush xurofotlariga qarshi kurash", partiya va komsomol yacheykalarida dinga qarshi bevosita targ'ibotni yo'nga qo'yish uchun vaqt keldi deb hisoblash bosqichiga o'tildi [10;48].

20-yillarning birinchi yarmi boshida Markazda va O'zbekistonda dinga qarshi matbuot organlari va maxsus tashkilotlarining tuzilishi, xudosizlik uchun kurash harakati ommaviy tus oldi.

1922-yilning oxirlaridayoq markazda dahrilik siyosatini targ'ibot qiluvchi "Ateist" va "Bezbojnik" gazetalarini chop etila boshlandi. 20-yillarning ikkinchi yarmida, SSSRda ateistik harakat avj olib, u davlat siyosatining uzviy bo'lagiga aylandi. Ushbu siyosat yuzasidan joylarda yoshlar jalb etilgan "Xudosizlar jamiyat" (1925-yil) tuzildi. Ana shunday jamiyat 1928-1929 yillarda Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, O'sh kabi shaharlarda ham tashkil etildi. Ushbu jamiyatlar diniy tasavvurlarga, uning peshvolariga qarshi ateistik kurash olib bordi, uning joylardagi tashkilotlari zo'r berib ateistik faoliyat ko'rsatdi. Ateizmga doir maxsus gazeta va jurnallar nashr qilindi.

1920-yillarning oxirida Butunittofq miqyosida "Xudosizlar" uyushmasi 14 ta tilda, 18 ta nomdagi o'z nashrlariga ega bo'ldi [7;54]. Xudosizlik targ'iboti jamiyatning barcha guruh va tabaqalari orasida ham targ'ib qilish kuchaydi.

1928-yilning fevralidan boshlab O'zbekiston SSRda oyda bir marta, 3 ming nusxada 3-4 bosma taboq hajmda "Xudosizlar" jurnali chop etilib, unda dinga qarshi targ'ibot masalalari

kuchaytirib yuborildi. Respublikaning o'nlab matbuot organlarida islom dini va musulmon ulamolarini tahqirlovchi maqlolalar chop etildi.

1929-yil 1-fevraldan boshlab O'zbekistonda chop etiladigan "Xudosizlar" jurnali arab imlosida, keyinchalik lotin imlosida, shuningdek, rus tilida nashr etila boshlandi. Jurnalda markazning ushbu yo'naliishdagi jurnal va gazetalarda chop etilgan rus tilidagi o'nlab maqlolarning tarjimasi uzluksiz e'lon qilinib turildi.

Andijon shahrida 1938-1939 yillarda 71 ta masjid, 1 ta rus cherkovi, 3 ta yaxudiy sinagogi bo'lib, ularda diniy marosimlarni bajarishga turli yo'llar bilan to'sqinlik qilingan [12;75]. O'zining diniy qadriyatları va islom muassasalarini saqlab qolish maqsadida aholining hashar yo'li bilan mablag' to'plash ishlari ham hukumat organlari tomonidan ulamolar targ'iboti deb tushinilgan. Bu esa dindorlarni ta'qib qilish uchun o'ylab topilgan navbatdagi bahonalardan biri bo'lgandi.

Respublikaning Farg'ona viloyatida dingga qarshi targ'ibotni keng miqyosda targ'ibot qilishlik uchun 1940-yilda 79 166 so'mlik dingga qarshi kurash mazmunidagi adabiyotlar, qo'llanmalar xarid qilingan. 1940-yilda birgina Farg'ona viloyati hududida "Kurashchan xudosizlar" yacheykalarining soni 2 243 taga etgan, a'zolari soni esa 45 824 nafarni tashkil etgan. Shuningdek, o'lkada 272 ta agitator, 210 lektorlar shahar va qishloqlarda dingga qarshi targ'ibot ishlarini orlib borishgan [14;20].

1940-yil sentabrida bo'lib o'tgan Farg'ona viloyat partiya qo'mitasiga yig'ilishida barcha shahar va qishloq sovetlari kengashi raislari o'z hududlaridagi diniy muassasalarini qat'iy nazorat qilish, qayta ro'yxatdan o'tkazish, yaroqsiz qolgan masjid binolarini buzib yuborish va undan chiqqan qurilish ashyolarini "Qurilishsavdofond" tashkilotiga boshqa maqsadlarda ishlatish uchun berilishi ta'kidlandi [17;7].

1929-1941-yillar davomida "Kurashchan xudosizlar" uyushmasi sovet hokimiyatining diniy muassasa va tashkilotlar faoliyatiga butunlay barham berish ishida qilgan rahnamoligi jamiyatda o'zining asoratlari izini qoldirdi.

1932-yilda "Bezbojnik" gazetasining oylik tiraji 3 ming nusxaga etdi. Shu nomdagagi jurnal tiraji esa 200 ming nusxada chop etila boshlandi. Ushbu muassasalarda dingga qarshi targ'ibot markazlari, ateistlar burchagi, "Kurashchan xudosizlar" uyushmasining lektorlar guruhi faol ishlab turgan. "Kurashchan xudosizlar" uyushmasining mahalliy joylardagi tashkilotlarini saqlab turish uchun katta miqdordagi mablag' ajratilib, birgina 1937-yilda 712 ming 600 so'm miqdorida mablag' ushbu maqsadga sarflangan. "Kurashchan xudosizlar" uyushmasi boshlang'ich yacheykalarini va ularning soni 1926-yilning yanvarida 2421 ta bo'lsa, 1928-yilning iyul oyiga kelib 4654 taga ko'paygan. Ularda faoliyat yuritgan a'zolar soni esa yuqoridagi yillarda 87 033 tadan 216 151 taga ko'paygan [3;15].

Sobiq sovetlar davlati davrida millatlararo totuvlik g'oyasi internatsionalizm tushunchasi bilan almashtirilib, millatlararo munosabatlar sovet va marksistik ideologiyasi nuqtai nazaridan, hukmron millat manfaatlaridan kelib chiqqan holda, tushuntirilar edi. Bu davlatdagi barcha millat va etatlarning birligi va totuvligi "sovet xalqi" degan nom bilan nomlanib, uning mazmunida hech qanday milliy ma'no, o'zlik mavjud bo'limgan.

1897-yilda respublikamizning hozirgi hududida 70 millat vakili yashagan. 1927-yilga kelib 90 millat va elat vakili istiqomat qilgan. 1959-yilda 113 millat vakili ro'yxatga olingan.

O'zbekiston SSR tashkil topgandan keyin RKP(b)ning XII syezdida qabul qilingan propaganda, matbuot va agitatsiya masalalari yuzasidan rezolyutsiyasi (1923-yil aprel) va RKP(b)ning XIII syezdida tasdiqlangan "qishloqda ishlash" to'g'risidagi rezolyutsiyasi [6;81] asosida O'zbekiston kompartiyasining I syezdida "dinga qarshi propaganda va turmush xurofotlariga qarshi kurash" [11;48] kabi rezolyutsiyalar qabul qilinadi.

Jumladan, "dinga qarshi propaganda" rezolyutsiyasida "partiya va komsomol yacheykalarida, shuningdek partiya klub ishlarida (to'garaklarida) dingga qarshi bevosita propagandani yo'liga qo'yish uchun vaqt keldi deb hisoblaydi" kabi jumlalar qayd qilingan edi.

Agitatsiya va propaganda ishlariga partiya a'zolari va komsomollarni, partiya va Sovet apparati tarkibida faoliyat ko'rsatayotgan ayollarni keng jalb qilish muhimligi alohida uqtirilgan.

Aslida diniy muassasa va tashkilotlarga sinfiycha yondashuv markazdan 1920-yildayoq avj oldirilgan bo'lib, bu frontga Sovet hukumati va kompartiyaning etakchi arboblari: N.K.Krupskaya, I.I.Skvorsov, B.S.Stepanov, A.V.Lunacharskiy, V.D.Bonch-Bruyevich, P.A.Krasikov, Y.Yaroslavskiy, Y.Rudzutak, A.I.Rikov, N.I.Buxarin, proletar shoir va yozuvchilardan A.M.Gorkiy, V.V.Mayakovskiy, D.Bedniy [9;19] va boshqalar safarbar qilingan edi.

Dahriylikka da'vat qiluvchi har qanday diniy e'tiqodlarga qarshi kurashga qaratilgan bolsheviklarning dastlabki matbuot organi 1921-yildayoq "Revolyutsiya i serkov" (Inqilob va

## TARIX

cherkov), P.A.Krasikov muharrirligi ostida juda katta nusxada chop etila boshlangandi. Ushbu jurnalda har qanday dinning xalq uchun zararli ekanligi, "inqilobiy" vazifalarini ado etishda muhim g'ov bo'lishi, dindorlarning monarxiya va eski jamiyat tarafдорлари ekanliklari, diniy muassasa va tashkilotlar faoliyatini qattiq nazorat qilish, ularni qo'poruvchilik, buzg'unchilik o'chog'iga aylanishiga yo'l qo'ymaslik va ayrim ruhoniy namoyondalarning shaxsini tahqirlovchi maqola, xabarlar e'lon qilib turildi. Nasroniy, islom, yahudiy dinlarini, ayniqsa, diniy bayramlar arafasida "fosh etuvchi" minglab nusxalarda varqa va plakatlar chop etilib, barcha o'lkalarga tarqatildi. 1922-yilda dahriylik siyosatini targ'ib qiluvchi ikkita gazeta: "Ateist" (15 ming nusxada chiqarilgan, muxarri A.I.Shpitsberg bo'lgan), "Bezbojnik" (muharriri Y.Yaroslavskiy) chop etilib, [1;276] Sovet Ittifoqining barcha shahar va qishloqlariga ko'p nusxada tarqatilar edi.

1922-yilning oxirida dindor va dinga e'tiqod qiluvchilarni xo'rash va qo'pol o'rta asrcha haqoratlash tashviqotiga qaratilgan "Bezbojnik" (Xudosiz) jurnalining birinchi soni nashrdan chiqdi.

M.Kostelovskiy muharrirligida chop etilgan mazkur jurnal muqovasida nasroniylik e'tiqodining payg'ambari Iso Masihni masxaralovchi satirik tasvir bo'lib, din va diniy e'tiqodga ishonuvchilar, ruhoniy arboblar "ablah" deb haqoratlangan edi.

Xudosizlar jamiyati vujudga kelishi bilan dinga qarshi kurash yagona markaz qo'lida to'plandi. Dahriylik siyosati olib borishning usul va vositalari takomillashtirib borildi, ushbu yo'naliishga katta miqdorda mablag' ajratildi. Ayniqsa, noshirchilik ishi keng yo'lga qo'yilib, 1924-1927 yillarda cherkov va masjidlarni tugatish harakati kuchayib ketdi. Xabarlardan birida 1927-yilda ishchi-dehqonlar xohish irodasi bilan 127 ta cherkov yopilgan bo'lsa, 1928-yilda 592 ta cherkov va monastrlar yopildi. Bu esa 1927-yildagiga nisbatan 4 marta ko'pdir [4;3], deb yozilgan. Cherkov va monastrlarni yopish harakati, diniy bayramlarga ishtirok qilmaslik, shaxsiy hayotdagi diniy e'tiqod marosimlarini yo'qotish kompaniyalarini o'tkazish rasm bo'la boshladi.

Andijon shahrida 1938-1939 yillarda 71 ta masjid, 1 ta rus cherkovi, 3 ta yahudiy sinagogi bo'lib, ularda diniy marosimlarni bajarishga turli yo'llar bilan to'sqinlik qilingan [13;75]. O'zining diniy qadriyatlarini va islom muassasalarini saqlab qolish maqsadida aholining hashar yo'li bilan mablag' to'plash ishlari ham hukumat organlari tomonidan ulamolar targ'iboti deb tushinilgan. Bu esa dindorlarni ta'qib qilish uchun o'ylab topilgan navbatdagi bahonalardan biri bo'lgandi.

Respublikaning Farg'ona viloyatida dinga qarshi targ'ibotni keng miqyosda targ'ibot qilishlik uchun 1940-yilda 79 166 so'mlik dinga qarshi kurash mazmunidagi adabiyotlar, qo'llanmalar xarid qilingan [15;3].

1940-yilda birligina Farg'ona viloyati hududida "Kurashchan xudosizlar" yacheykalarining soni 2 243 taga etgan, a'zolari soni esa 45 824 nafarni tashkil etgan. Shuningdek, o'lkada 272 ta agitator, 210 lektorlar hududlarda dinga qarshi targ'ibot ishlarini olib borishgan [16;20].

1940-yil sentabrida bo'lib o'tgan Farg'ona viloyat partiya qo'mitasiga yig'ilishida barcha shahar va qishloq sovetlari kengashi raislari o'z hududlaridagi diniy muassasalarini qat'iy nazorat qilish, qayta ro'yxatdan o'tkazish, yaroqsiz qolgan masjid binolarini buzib yuborish va undan chiqqan qurilish ashyolarini "Qurilishsavdofond" tashkilotiga boshqa maqsadlarda ishlatish uchun berilishi ta'kidlandi [18;5].

## XULOSA

Xulosa o'rnda shuni aytish joizki, 1929-1941-yillar davomida "Kurashchan xudosizlar" uyushmasi sovet hokimiyatining diniy muassasa va tashkilotlar faoliyatiga butunlay barham berish ishida qilgan rahnamoligi jamiyatda o'zining asoratlari izini qoldirdi. 1929-1941-yillarda shafqatsiz dahriylik siyosatining yuritilishi dindorlarga o'zlarini uzoq vaqt o'nglay olmaydigan darajada zarba berdi. Bu tahlil ko'rsatadiki, sovet hokimiyatining zo'ravonlik siyosati faqat musulmon aholi bilan cheklanib qolmagan, balki turli millat va konfessiyalar vakillariga ham ta'sir qilgan.

Darhaqiqat, O'zbekiston zaminida qadim zamondan islom bilan boshqa dinlar, madaniyatlar yonma-yon yashab, rivojlanib va bu jamiyatning ma'naviy yuksalishiga muayyan hissa qo'shdi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Алексеев В. Иллюзия и догмы. М.: Политиздат, 1991.
2. Архиепископ Владимир. ...А друзей искать на Востоке. – Т.: 2000.
3. Атеистик сухбатлар. Мақолалар тўплами. – Т., 1990.
4. Безбожник . 1930. № 10.
5. Ибрагимов Э. Ўзбекистон – диний бағрикенглик ўлкаси // Ўзбекистон – бағрикенг диёр. – Т.: Ўзбекистон, 2007.

6. КПСС съездлари, конференциялари ва Марказий комитет пленумларининг резолюция, қарорлари. Т., 1983, III том.

7. Қонун, дин, черков.-Тошкент: Ўзбекистон, 1987.

8. Миллий истиқтол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Т.: Ўзбекистон, 2000.

9. Наука и релегия. 1985. №12.

10. Ўзбекистон комммунистик партияси съездларининг резолюция ва қарорлари. Т., 1957, I том.

11. Ўзбекистон комммунистик партияси съездларининг резолюция ва қарорлари. Т., 1957, I том.

12. ЎзР ПДА, 1-фонд, 6-рўйхат, 32-иш.

13. ЎзР ПДА, 1-фонд, 6-рўйхат, 32-иш.

14. ЎзР ПДАФВБ, 1-фонд, 6-рўйхат, 68-иш.

15. ЎзР ПДАФВБ, 1-фонд, 6-рўйхат, 68-иш.

16. ЎзР ПДАФВБ, 1-фонд, 6-рўйхат, 68-иш.

17. ЎзР ПДАФВБ, 1-фонд, 6-рўйхат, 69-иш.

18. ЎзР ПДАФВБ, 1-фонд, 6-рўйхат, 69-иш.